



“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO'PLAMI**

18-dekabr 2025-yil



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA
FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO’PLAMI**

18-dekabr 2025-yil

BUXORO – 2025

Morphologisch drückt sich die prädikative Beziehung in der Kongruenz des Prädikativs mit dem Subjekt aus (in Zahl und Person), das Prädikativ - in Zahl, Geschlecht und Kasus. Er ist Lehrer. Sie ist Lehrerin. Wir sind Lehrer.

Kurz gesagt, man klassifiziert alle deutschen Sätze: 1. Nach dem Satzbau 3. der Gliedstellung 2. der emotionalen Färbung 3. der Zahl der Hauptglieder 4. der Vollständigkeit 5. dem Charakter des Subjekts.

Grammatische (morphologische und syntaktische) Ausdrucksmittel sind verbale Formen, vor allem die Modi, Zeitformen, Wortfolge, Satzstrukturen, Konjunktionen als ob, damit. Die grammatische Kategorie des Modus bildet den Kern, um den sich andere Ausdrucksmittel der Modalität gruppieren. Zusammen bilden sie das sog. Modalsystem¹⁰⁶ oder wie man es in der neuesten Zeit nennt – Modalfeld.¹⁰⁷

DIAXRON KORPUS IMKONIYATLARI (MUSTAQILLIK DAVRI NASHRLARI MISOLIDA)

Xusainova Zilola Yuldashevna

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Yangibayeva Surayyo Gulumboevna

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi II bosqich magistranti.

Annotatsiya. Maqolada 1991-2021-yillar oralig'idagi o'zbek badiiy nasriy matnlari asosida yaratilgan diaxron korpusning ilmiy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Korpus orqali leksik o'zgarishlar, grammatik tendensiyalar, stilistik va janrlararo tahlil, gender tadqiqotlari amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari mustaqillik davri o'zbek adabiyotidagi asosiy tendensiyalarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: *diaxron korpus, korpus lingvistikasi, leksik o'zgarishlar, mustaqillik davri, badiiy nasr, statistik tahlil.*

Kirish

So'nggi yillarda korpus lingvistikasi jahon ilmiy hamjamiyatida katta rivojlanishlarga erishdi. Buning asosiy sababi – korpuslar tilning keng qamrovli va obyektiv tahlilini amalga oshirish imkonini beradi [McEnery T. and Hardie A., 2012]. Shu bilan birga, diaxron korpuslar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular tilning vaqt davomida o'zgarishini, leksik va stilistik dinamikalarini o'rganish uchun qulay vosita hisoblanadi. Diaxron korpus, asosan, ma'lum bir vaqt oralig'idagi matnlar to'plamidan iborat bo'lib, lingvistik tadqiqotlar, adabiy jarayonlarni kuzatish, badiiy tilning evolyutsiyasi va til tarixini o'rganish kabi sohalarida samarali qo'llaniladi [Sinclair J., 2004]. Bu turdagi korpuslar orqali til birliklarining paydo bo'lishi va kamayishi, yangi leksik birliklar va ifodalar tarixi, shuningdek, badiiy janrlardagi o'zgarishlarni tahlil qilish mumkin. Ushbu maqolada 1991–2021-yillar oralig'idagi o'zbek tilining nasriy turdagi badiiy matnlari asosida yaratilayotgan diaxron korpusning ilmiy va amaliy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi – korpusning lingvistik tahlilda, adabiy jarayonlarni o'rganishda va zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida qanday foydali vosita bo'lishi mumkinligini aniqlashdir.

Asosiy qisim

1. Diaxron korpusning ilmiy imkoniyatlari

Diaxron korpuslar lingvistik va adabiy tadqiqotlarda keng imkoniyatlarni yaratadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

¹⁰⁶ W.Schmidt. Grundfragen der deutschen Grammatik Bachum, 1965, S.224.

¹⁰⁷ W.Schmidt, S. 224, Brinkmann. Die deutschen Sprache. Düsseldorf, 1962, S. 345. Gulyga E. I. Schendels: Grammatisch - lexikalische Felde in der deutschen Gegenwartssprache 1980. M., L. S.74

Leksik o'zgarishlarni kuzatish. Korpus yordamida til birliklarining vaqt bo'yicha paydo bo'lishi, faol yoki passiv holga kelishi, yangi so'zlarning kirib kelishi va eskilarning kamayishini aniqlash mumkin.

Grammatik tendensiyalarni tahlil qilish. Korpus sintaktik konstruksiyalarning o'zgarishini, so'z turkumlari va morfologik shakllarning qo'llanish dinamikasini tadqiq qilish imkonini beradi.

Stilistik va janrlararo tahlil. Badiiy matnlarning janrlar bo'yicha stilistik xususiyatlari, dialog-monolog nisbatidagi o'zgarishlar, tasviriy birliklar va metaforik obrazlarning davriy evolyutsiyasi aniqlanishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy va tematik tahlil. So'z va ifodalarning davr bo'yicha qo'llanish chastotasi yordamida matnlar orqali jamiyat kayfiyati, milliy va madaniy tendensiyalar, shuningdek tematik ustunliklar tahlil qilinadi.

Tilshunoslik va NLP sohalari uchun manba. Korpus sun'iy intellekt, lemmatizatsiya, POS-teglash, mashina tarjimai va boshqa kompyuter lingvistikasi tadqiqotlarida qo'llanilishi mumkin.

2. Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusning tahlil imkoniyatlari

Mustaqillik davri matbuot va adabiyotlarining lingvistik o'zgarishlarni aks ettirishdagi ahamiyati katta. Ushbu davrda chop etilgan rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot vositalari materiallari va adabiy asarlar til o'zgarishlarini kuzatish uchun muhim manba hisoblanadi [Biber D., 1993]. Mustaqillik yillarida chop etilgan nashrlarda leksik-semantik o'zgarishlar, terminologiyaning yangilanishi hamda stilistik ko'rinishlarning o'zgarishi yaqqol seziladi. Mustaqillik davriga oid matnlarning diaxronik korpusga kiritilishi o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini yanada aniqroq tadqiq etish imkonini beradi. Bu jarayonda lingvistik modellash, leksik-statistik usullar hamda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar diaxronik tahlillarning samaradorligini oshiradi. [Xusainova Z., Yangibayeva S., 2025]. Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusning dastlab ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Ma'lumotlar bazasi uchun 1991–2021-yillar oralig'idagi nasriy turdagi badiiy asarlar asos qilib olindi. Natijada esa ushbu qamrovga asoslangan holda quyidagi matnlar to'plandi (1-jadval).


1-jadval. Ma'lumotlar bazasidagi matnlar to'plami

<i>Mualliflar</i>	<i>Badiiy asar</i>	<i>Yillar kesimi</i>	<i>Janri</i>	<i>Formati</i>	<i>Yozuv shakli</i>
107 ta	116 ta	1991-2021	roman, qissa, hikoya, esse, drama, novella, publisistik miniatyura	txt	lotin

Yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlar asosida, hozirgi diaxron korpus quyidagi yo'nalishlarda tahlil uchun ishlatiladi.

Diaxron korpuslar orqali leksik birliklarning vaqt bo'yicha o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Diaxron tahlil bosqichida vaqt o'tishi bilan tilning o'zgarish tendensiyalari batafsil o'rganiladi. Ushbu tahlillar til evolyutsiyasini, leksik boylik va sintaktik strukturalarning o'zgarishini ochib beradi [Xusainova Z., Yangibayeva S., 2025]. Masalan, korpusda tahlil qilinayotgan yillar oralig'ida ayrim kalit so'zlar qanday chastotada qo'llanilganligini o'rganish, tilning diaxron o'zgarishlarini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Biz korpusning tahlili davomida asarlarda eng ko'p qo'llanilgan "baxt" va "baxtsiz" kabi birliklarning vaqt davomida qanday chastotada qo'llanilganligini, mustaqillik davri nashrlaridagi tematik ustunlik yoki ijtimoiy ruhiyat haqida bilvosita ma'lumot beradi. Shu maqsadda, korpusdagi matnlar ushbu ikki so'zning 1992-yildan 2021-yilgacha bo'lgan chastotasi aniqlanib, tahlil qilindi (1-rasm). Ushbu tahlilda so'zlar korpusdagi har bir yilda nashr qilingan matnlarda nechta marta uchraganiga qarab hisoblab chiqildi. "Baxt" leksemasining qo'llanilishi 2001-, 2005- va 2008-yillarda sezilarli darajada ortgan, ayniqsa 2005-yilda maksimal darajaga ya'ni 270 dan ortiq asarlarda foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa mana shu yillarda shaxsiy yoki ijtimoiy baxt mavzusining ko'tarilishi mumkinligini ham anglatadi. "Baxtsiz" leksemasi esa nisbatan past

chastotada bo'lib, bu leksema asosan 2005-2009-yillar oralig'ida eng yuqori ko'rsatishga yetgan. Bu farq "baxt" leksemasining ijobiy konnotatsiya holati bilan izohlanadi [Xusainova Z., Xusainova Sh., Yangibayeva S., 2025].



1-rasm. So'zlarning diaxron chastotasi

Davr bo'yicha so'zlarni tahlil qilish orqali o'zbek tilida 1991–2021-yillar oralig'ida keng qo'llanilgan so'zlarni o'rganishdan tashqari kam qo'llanilgan so'zlarni ham aniqlab ularning iste'moldan chiqish davrlarini va sabablarini ham o'rganish mumkin. Masalan, yig'ilgan baza asosida *qorishkul*, *mogay* kabi izohli lug'atda uchramaydigan so'zlar mavjudligining guvohi bo'ldik (2-jadval).


2-jadval. Korpusda kam qo'llanilgan so'zlar

Misol	Muallif	Nashr yili	So'zning ma'nosi
Kuchuk nimaga bunday qildi, bu qurg'ur qorishqulmi deyman-ov, deb o'ylaptilar.	Mamatqul Hazratqulov "Ko'kko'l" qissa	2005	bo'ri
Bu mogayning gapi rostmi? – yo'q, u qochdi, – dedi mo'gul o'z tilida.	Mirmuhsin "Temur Malik" roman	1996	ilon

Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusdagi matnlar asosida ham tahlil qilish imkoniyati ham mavjud. Xususan, korpusda roman (25%), qissa (42%), hikoya (26%), esse (3%), hajviya (1%), publisistik miniatyura (1%) va novella (2%) janrlarda yaratilgan asarlardan iborat. Bu janrlarni ichida eng ko'p yaratilgan janr bu qissa (42%) janri bo'lib bu janrda ayniqsa 2010-yildan keyin juda ko'plab asarlar yaratilgani kuzatiladi (2-rasm).

2-rasm. Korpusning janrlar statistikasi

Diaxron korpus yordamida yaratilgan asarlar muallifi qaysi jinsga mansubligini aniqlash



imkoniyati ham mavjud. Diaxron korpusga jami 107 ta yozuvchining jami 116 ta asari yig'ib olingan. Ulardan asosan erkak yozuvchilar 94 tani (88%) ayol yozuvchilar 13 tani (12%) tashkil etadi. Yozuvchilar jinsi orqali matnlarning til uslubidagi farqlarni aniqlash, ijtimoiy va madaniy kontekstlarni ochish, statistik tahlilni kengaytirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Qolaversa emotsional semantika tadqiqotlariga ham asos bo'ladi.

XULOSA

Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpusning lingvistik tahlili shuni ko'rsatadiki, korpus o'zbek tilining so'nggi o'ttiz yildagi o'zgarishlarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. "Baxt" va "baxtsiz" leksemalarining chastota tahlili orqali ijobiy konnotatsiyali so'zlar salbiylarga nisbatan ancha yuqori chastotada qo'llanilganligi aniqlandi. Bu mustaqillik davri adabiyotida optimistik va ijtimoiy ruhning kuchli ekanligini anglatadi. Korpus tarkibida qissa janri (42%) ustunlik qilishi o'zbek adabiyotida bu janrning ahamiyatini ko'rsatadi. Roman (25%) va hikoya (26%) janrlari ham sezilarli ulushga ega bo'lib, bu esa o'zbek o'quvchilarining adabiy didi haqida ma'lumot beradi. Gender tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda erkak yozuvchilar (88%) ayollarga (12%) nisbatan ancha ko'p vakillik qiladi. Bu holat esa erkak yozuvchilarga nisbatan ayol yozuvchilar kam ijod qilishini ko'rsatadi va keyingi tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Umuman olganda, diaxron korpus lingvistik tadqiqotlarda, ayniqsa til o'zgarishlarini kuzatishda, statistik tahlillarni amalga oshirishda va adabiy jarayonlarni o'rganishda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Korpusning kelajakdagi tadqiqotlarda kengaytirilishi va boshqa lingvistik jihatlarni o'rganishda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. McEnery T and Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press. 2012.
2. Sinclair J. Trust the Text: Language, Corpus and Discourse. Routledge. 2004.
3. Biber D. Variation across Speech and Writing. Cambridge University Press. 1993.
4. Xusainova Z., Yangibayeva S. Diaxron korpus yaratish bosqichlari (Mustaqillik davri nashrlari misolida). "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari". Toshkent, vol. 1, no. 01, pp 162-167, 2025.
5. Xusainova Z., Yangibayeva S. Mustaqillik davri nashrlariga asoslangan diaxron korpus yaratishning lingvistik ta'minoti. International scientific-practical conference: Contemporary Technologies of Computational Linguistics – CTCL. 2025.
6. Xusainova Z., Xusainova Sh., Yangibayeva S. Diyakron korpusun mimarisi va modeli. TURKLANG-2025: XIII International Conference on Computer Processing of Turkic Languages. – Istanbul, Turkiye, 17–21 September 2025.
7. Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. Continuum. 2006.

TERMINLARNING MAKRO-VA MIKROSTRUKTURASINING LEKSIKOGRAFIK NUQTAI NAZARDAN IZOHLANISHI

Yuldashova Adolat Adilbayevna

O'zMU, Xorijiy filologiya fakulteti

Nemis filologiyasi kafedrasida stajyor-o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug'at maqolasining makro- va mikrostrukturasi, lug'at tuzishda va lug'atdan foydalanishda lug'at maqolasining ahamiyati va majburiyligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: makrostruktura, mikrostruktura, manzil, manzillash, lemma, lug'at, metaleksikografiya, obyekt.

Annotation. This article discusses the macro- and microstructure of a dictionary entry, as well as the importance and necessity of the dictionary entry in dictionary compilation and dictionary use.

III SHO'BA. XXI ASR TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI: KOGNITIV TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA, KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKA HAMDA MADANIYATLARARO MULOQOT.....	124
Abdulxayrov Dilshod Pulatovich. ESKKURSIYA JARAYONINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI	124
Abdulxayrov Dilshod Pulatovich, Xalillayev Firdavs Ibadullo o'g'li. WISSENSVERMITTLUNG IN DER INTERKULTURELLE DISKURS (AM BEISPIEL REISELEITUNG).....	127
Abdulxayrov Dilshod Pulatovich, Yursunova Parizod Sattorali qizi. MODALITÄT UND MODALVERBEN IN DER DEUTSCHEN SPRACHE	130
Alimova Shaxnoza, Abdurashitov Farhod. SYNTACTICAL EXPRESSIVE MEANS AND SYNTACTICAL STYLISTIC DEVICES	133
Баймухамедова Лола Алиевна. КУЛЬТУРА РЕЧИ В РОЛИ КОММУНИКАТИВНОЕ АСПЕКТА ДЛЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ АУДИТОРИИ.....	135
Begmatov M.B. ILOVALI KONSTRUKSIYALARNING ASOSIY IFODAGA BOG'LANISH MEKANIZMLARI	138
Бегматов М, Мамбетниязова А.Х. Гап бўлакларининг ажратилишига таъсир қилувчи омиллар	139
Begmatov Quvonchbek Muxtarovich. HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ELLIPSIS HODISASI HAQIDA	142
Bobokalonov Ramazon Rajabovich. EYROPSIXOLINGVISTIKA - TANANI O'RGANISH NAZARIYASI	145
Bozorova Rufina Sharopovna. GIDROPOETONIMLARNING LINGVOPOETIK TIZIMI: NAZARIY ASOSLARI, TASNIFI VA ADABIY MATNDAGI BADIY VAZIFALARI.....	149
Jumaniyozov Z.O. "MIRZA" SO'ZI DIPLOMATIK TERMIN SIFATIDA.....	152
Фарогат Абдувахидовна Гафарова, Мухбира Хуршедовна Гафарова. ПРЕДЛОГ „VON“ И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ С СУБСТАНТИВНЫМИ СЛОВСОЧЕТАНИЯМИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ.....	154
Olaf Günther. PHILOLOGIE ALS PRAXISWISSENSCHAFT IM ZEITALTER DER KÜNSTLICHEN INTELLIGENZ.....	158
Olaf Guenther, Yarash Ruziev. TRADITIONELLE THEATERSPIELE IN MITTELASIEN .	160
Olaf Guenther, Yarash Ruziev. KAIROS ECONOMICS IN THE POST-SOVIET TRANSITION PERIOD OF CENTRAL ASIA	176
Khusenoova Mehriniso Uktamovna. THE FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF TERMS AND THEIR STYLISTIC EXPRESSION	187
Ismailov Y.N. NEMIS MENTALITETIGA CHIZG'ILAR (NEMIS MA'NAVIYATIDA O'RMONNING AHAMIYATI MISOLIDA)	189
Ишекенов Никита Александрович, Хаитова Гулшан Баходировна. ЛИНГВОКОНЦЕПТОДИДАКТИКА: КОНЦЕПТ КАК ОСНОВА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ И ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.....	191
Karimov Akbarshoh. DIE BEZIEHUNGEN ZWISCHEN WORTGRUPPE, EINFACHEM- UND ZUSAMMENGESETZTEM SATZ.....	194
I.U.Mamasoliyev. ILOVALI QURILMALARDA KOMPONENTLARNING KOMMUNIKATIV VA STILISTIK IMKONIYATLARI	196
Matkarimov San'at Hayitbayevich. APPROCHE LINGUISTIQUE ET CULTURELLE DES PROVERBES.....	198
M.R.Raximov. NEMIS TILIDA ILOVA KONSTRUKSIYALARINING O'ZIGA XOS BO'LAKLAR SIFATIDA KELISHI XUSUSIDA.....	200
Nematillayeva Fotima Akmal qizi. REKLAMA MATNINING SEMIOTIK XUSUSIYATLARIGA OID.....	203

Raxmatov Axmad Pirmuxammadovich. FE'L ZAMON SHAKLLARINING MATN VA DISKURSDAGI PRAGMATIK VAZIFALARI	204
Raxmatov Axmad Pirmuxammadovich. ZAMON KATEGORIYASI IFODALANISHIDA ASPEKTUALLIK MASALASI	207
Ro'ziyev Yarash Bozorovich. H. REYXENBAX NAZARIYASIDA ZAMON MUNOSABATLARI MASALASI.....	210
Ro'ziyev Yarash Bozorovich, Nizomova Madina Izatillo qizi. ENDE KOMPONENTLI TURG'UN SO'Z BIRIKMALARINING BADIY ADABIYOTDA QO'LLANILISHI	214
Ro'ziyev Yarash Bozorovich, Fayzulloyeva Niginabonu. INSON TAFAKKURIDA SHAKLLANGAN MANO'LAR VERBALLASHUVIDA MODAL FELLARNING ROLI....	216
Samadova Visola Baxtiyor qizi. TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK-STRUKTUR QURILISHI TAHLILI	217
Тошев Зиявидин Бадриддинович. О ФЕНОМЕНЕ ПАУЗЫ В СПОНТАННОЙ НЕМЕЦКОЙ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	219
Тошев Зиявидин Бадриддинович. ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	222
Z.B. Toshov, I. Husenova. ÜBER DIE ROLLE DER PHONETIK IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT	227
Toirova Shodiya. DIE SYNTAKTISCHE ROLLE DER SATZREIHE IN DER DEUTSCHEN SPRACHE.....	228
Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna. DIAXRON KORPUS IMKONIYATLARI (MUSTAQILLIK DAVRI NASHRLARI MISOLIDA)	231
Yuldashova Adolat Adilbayevna. Terminlarning makro-va mikrostrukturasining leksikografik nuqtai nazardan izohlanishi	234
Yuldosheva Charos Ollayor kizi. A CORPUS-BASED STUDY OF FLORA IDIOMS IN CONTEMPORARY AMERICAN ENGLISH	237
Чупонов Отаназар Отожонович. АНТРОПОНИМЫ В ПОСОЛЬСКИХ КНИГАХ ПО СВЯЗЯМ РОССИИ С ХИВОЙ И БУХАРОЙ XVII ВЕКА.....	240
IV SHO'BA. CHET TILINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: INNOVATION USULLAR, INTERNET PLATFORMASI, MAXSUS ILOVALAR, SUN'IY INTELLEKT.....	
Akabirova Mexriniso Baxtiyorovna. INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING LITERARY THEORY IN HIGHER EDUCATION	243
Anormamatova Nafisa, Samadova Visola. TALABALARNI INGLIZ TILIGA O'QITISH JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING XUSUSIYATLARI	245
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ziyodulloyeva Sevinch Abdullo qizi. GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH (NEMIS TILI IKKINCHI CHET TILI DARSISOLIDA).....	247
Чурилова Людмила Александровна, Хайтова Гулшан Баходировна. ЦИФРОВОЙ ФОРМАТ ИГРОВЫХ ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ПОДРОСТКОВ В ШКОЛЕ	250
Komilova Gulnoz Uzoqovna. THE IMPORTANCE OF CLIL TECHNOLOGY IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF TECHNICAL STUDENTS.....	254
Islomov Sanjar Ro'ziqulovich. SPRACHLERNSPIELE UND SPIELERISCHE AKTIVITÄTEN IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT	258
Murtazaeva Aisafar Bazarkulovna. MENEJMENT YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY MULOQOT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA CLIL TECHNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN MASHQLAR TIZIMI.....	262
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Narziyeva Nilufar Po'lotjon qizi. CHET TILINI O'QITISHNI LOYIHALASH USULLARI VA TAMOYILLARI	264